O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

Yangi anjirni bozorga chiqarish va tijorat sifati nazorati bo‘yicha standarti

(ЕЭК ООН FFV-17:2017, IDT)

Rasmiy nashr

O‘zbekiston standartlar instituti
Toshkent

STANDARTLAR INSTITUTI #2UYI5ZZVJ5 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

So‘zboshi

1 O‘zbekiston standartlar instituti tomonidan **ISHLAB CHIQILDI.**

2 O‘zbekiston standartlar institutining 2026-yil 21 iyuldagi 26/XSt-26-sonli buyrug‘i bilan **TASDIQLANDI.**

3 Ushbu standart ЕЭК ООН FVV-17:2017 “UNECE Standard FFV-17 concerning the marketing and commercial quality control of Fresh figs” xalqaro standartiga aynan o‘xshash.

4 DASTLABKI AMALGA KIRITILISHI

Ushbu milliy standart va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarida chop etiladi.

Ushbu standartni O‘zbekiston Respublikasi hududida rasmiy tarqatish mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishlidir

STANDARTLAR INSTITUTI #2UYI5ZZVJ5 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Muqaddima

Qishloq xo‘jaligi sifati standartlari bo‘yicha ishchi guruh

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa Iqtisodiy Komissiyasi (BMT YeIK) Qishloq xo‘jaligi sifat standartlari bo‘yicha ishchi guruhining tijorat standartlari xalqaro savdoni rivojlantirishga ko‘maklashadi, yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantiradi va rentabellikni oshiradi.

Ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar manfaatlarini himoya qiladi. BMT YEIK standartlari hukumat tashkilotlari, ishlab chiqaruvchilar, savdogarlar, import va eksport qiluvchilar, shuningdek, boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan qo‘llaniladi va yangi meva va sabzavotlar, quruq va quritilgan mevalar, urug‘lik kartoshka, go‘sht, kesilgan gullar, tuxum va tuxum mahsulotlarini o‘z ichiga olgan keng ko‘lamli qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qamrab oladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a’zo har qanday mamlakat Ishchi guruh faoliyatida teng ishtirok etishi mumkin. BMT EEKning qishloq xo‘jaligi standartlari bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumotlarni bizning veb-sahifamizdan olishingiz mumkin:
http://www.unece.org/trade/agr/welcome.html.

Anjir standartining ushbu nashri Ishchi guruhning yetmish oltinchi sessiyasida qayta ko‘rib chiqilgan va qabul qilingan ECE/CTCS/WP.7/2021/22 hujjatiga asoslanadi (keyinchalik COVID-19 davrida maxsus tartib-qoidalarga muvofiq "e’tiroz bildirmaslik" tartibi bilan).

Ushbu standartni talqin qilish yoki qo‘llashda tushunmovchiliklar yuzaga kelganda standartning asli yozilgan tillarining biridan foydalanish tavsiya etiladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #2UYI5ZZVJ5 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

YANGI ANJIRNI MEVALARINI REALIZATSIYA QILISH VA TIJORAT SIFATINI NAZORAT QILISH BO‘YICHA STANDARTI

СТАНДАРТ КАСАЮЩИЙСЯ СБЫТА И КОНТРОЛЯ ТОВАРНОГО КАЧЕСТВА СВЕЖЕГО ИНЖИРА

STANDARD CONCERNING THE MARKETING AND COMMERCIAL QUALITY CONTROL OF FRESH FIGS

Amalga kiritish sanasi: 2026 yil 1-avgustdan

I Mahsulotni belgilash

Ushbu standart iste’molchiga yangi holatda yetkazib berish uchun mo‘ljallangan Ficus carica L. turiga mansub navlar (kultivarlar)ning yangi anjir mevalariga nisbatan qo‘llaniladi. Sanoatda qayta ishlash uchun mo‘ljallangan yangi anjir mevalari bundan mustasno.

II Sifatga qo‘yiladigan talablar

Ushbu standartning maqsadi tayyorlash va qadoqlashdan yangi anjir mevalarining sifatiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

Biroq, eksportdan keyingi bosqichlarda mahsulotlarda standart talablariga nisbatan quyidagi holatlar kuzatilishi mumkin:

- yangilik va turgor holatining (to‘qimalarning tarangligi) biroz pasayishi;
-“Ekstra” sinf (navidan) tashqari toifalarga mansub mahsulotlarda ularning rivojlanishi va tez buziluvchanligi sababli sifatining biroz yomonlashishi.

Mahsulot egasi (saqlovchisi) yoki sotuvchisi bunday mahsulotlarni ushbu standart talablariga muvofiq bo‘lmagan har qanday namoyish etishi, sotuvga taklif qilishi, yetkazib berishi yoki boshqa har qanday usulda realizatsiya qilishi mumkin emas. Mahsulot egasi (saqlovchisi) yoki sotuvchisi mazkur muvofiqlikni ta’minlash uchun javobgar hisoblanadi.

A. Minimal talablar

Barcha sinflar (navlar) uchun sifat talablari

Har bir toifa uchun belgilangan maxsus talablar va ruxsat etilgan chetlanishlar hisobga olingan holda, barcha sinflardagi yangi anjir mevalari quyidagi talablarga javob berishi lozim:

• butun bo‘lishi;

• sog‘lom bo‘lishi; chirigan yoki iste’mol qilish uchun yaroqsiz holga kelgan mahsulotlarga yo‘l qo‘yilmaydi;

• toza bo‘lishi, ko‘zga ko‘rinadigan begona aralashmalardan deyarli xoli bo‘lishi;

• tashqi ko‘rinishi yangi (tarang) bo‘lishi;

•zararkunandalar mavjud bo‘lmasligi kerak;

• zararkunandalar yetkazgan shikastlar natijasida meva eti shikastlanmagan bo‘lishi;

• ortiqcha tashqi namlikdan xoli bo‘lishi;

_____

Rasmiy nashr

STANDARTLAR INSTITUTI #2UYI5ZZVJ5 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

• begona hid yoki ta’mga ega bo‘lmasligi.

Yangi anjir mevalarining rivojlanganlik darajasi va holati quyidagilarni ta’minlashi kerak:

• tashish va yuk ortish-tushirish jarayonlariga bardosh bera olishi;

• belgilangan manzilga qoniqarli holatda yetib borishi.

B. Yetilish talablari

Yangi anjir mevalarining rivojlanganlik darajasi va yetilganlik holati uning pishish jarayonini davom ettirishiga hamda iste’mol qilish uchun qoniqarli darajadagi pishiqlikka yetishiga imkon berishi kerak.

C. Tasnifi

Yangi anjir quyida belgilangan talablarga muvofiq uch sinfga (naviga) ajratiladi.

(i) Oliy nav (Ekstra sinfi/class)

Ushbu navdagi yangi anjirlar eng yuqori sifatli bo‘lishi kerak. Ular navga va /yoki yoki tijorat (pomologik) turiga xos xususiyatlarga ega bo‘lishi hamda bandi butun bo‘lishi lozim.

Meva eti nuqsonlarsiz xoli bo‘lishi kerak.

Mahsulotlarda faqat juda kichik yuzaki nuqsonlarga yo‘l qo‘yiladi, bunda bunday nuqsonlar mahsulotning umumiy tashqi ko‘rinishi, sifati, saqlanish xususiyati va qadoqdagi taqdimotiga ta’sir ko‘rsatmasligi lozim.

(ii) Birinchi nav/class

Ushbu navdagi yangi anjirlar yaxshi sifatli bo‘lishi kerak. Ular naviga va /yoki yoki tijorat (pomologik) turiga xos xususiyatlarga ega bo‘lishi lozim.

Meva eti nuqsonlarsiz xoli bo‘lishi kerak.

Quyidagi kichik nuqsonlarga yo‘l qo‘yiladi, agar ular mahsulotning umumiy tashqi ko‘rinishiga, sifatiga, saqlanish xususiyatiga va qadoqdagi taqdimotiga salbiy ta’sir ko‘rsatmasa:

• shakli va rivojlanishidagi kichik nuqsonlar;

• rangidagi kichik nuqsonlar;

• meva bandining biroz shikastlangan bo‘lishi mumkin, biroq po‘stlog‘i yorilmagan bo‘lishi kerak;

• po‘stloqdagi quyidagi kichik nuqsonlar:

• po‘stloqdagi yengil bo‘ylama yoriqlar;

• bandning qarama-qarshi tomonidagi yoriqlar, ularning umumiy uzunligi 3 cm dan oshmagan taqdirda;

• cho‘zilgan nuqsonlar uchun uzunligi 1 cm dan oshmaydigan, boshqa shakldagi nuqsonlar uchun esa maydoni 0,5 cm^2 dan oshmaydigan yengil po‘kaklanish yoki yuzaki ishqalanish;

• zararkunandalar yetkazgan shikastlar natijasida po‘stloqda yuzaga kelgan nuqsonlar: cho‘zilgan nuqsonlar uchun uzunligi 1 cm dan oshmaydigan, boshqa shakldagi nuqsonlar uchun esa maydoni 0,5 cm^2 dan oshmaydigan.

STANDARTLAR INSTITUTI #2UYI5ZZVJ5 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

(iii) Ikkinchi nav/class

Ushbu navga yuqori navlarga kiritib bo‘lmaydigan, biroq yuqorida sanab o‘tilgan minimal talablarga javob beradigan yangi anjirlar kiradi. Meva eti sezilarli nuqsonlarga ega bo‘lmasligi lozim.

Quyidagi nuqsonlarga, agar yangi anjirlar o‘ziga xos sifat belgilari, saqlanuvchanligi va tovar ko‘rinishini saqlab qolsa, ruxsat etiladi:

- shakli va rivojlanishidagi nuqsonlar;
- rangidagi nuqsonlar;
- meva bandining mavjud bo‘lmasligi, bunda uning yo‘qolishi meva po‘stloqning chuqur yorilishiga sabab bo‘lmagan bo‘lsa;
- po‘stloqdagi quyidagi nuqsonlar:
- po‘stloqdagi bo‘ylama yoriqlar;
- meva bandning qarama-qarshi tomonidagi yoriqlar, ularning umumiy uzunligi 4 cm dan oshmagan va har bir alohida yoriqning uzunligi 3 cm dan oshmagan bo‘lsa;
- cho‘zilgan nuqsonlar uchun uzunligi 2 cm dan oshmaydigan, boshqa nuqsonlar uchun esa maydoni 1,5 cm^2 dan oshmaydigan yengil po‘kaklanish yoki yuzaki ishqalanish;
- zararkunandalar ta’sirida yuzaga kelgan po‘stloq nuqsonlari: cho‘zilgan nuqsonlar uchun uzunligi 2 cm dan oshmaydigan, boshqa nuqsonlar uchun esa maydoni 1,5 cm^2 dan oshmaydigan.

III. O‘lchamga qo‘yiladigan talablar

O‘lcham ekvatorial kesimning eng katta diametri yoki donalar soni bo‘yicha aniqlanadi. Yangi anjirning eng kichik o‘lchami 40 mm bo‘lishi kerak.

(a) Bitta qadoqlash birligidagi mevalar o‘lchami bir xil bo‘lishini ta’minlash maqsadida, bir qadoqdagi mahsulotlar o‘rtasidagi o‘lcham farqi quyidagidan oshmasligi kerak:

- qator va qatlamlar bo‘yicha tartib bilan joylashtirib qadoqlangan mevalar uchun — 5 mm;

- qadoq ichiga erkin joylashtirilgan mevalar uchun — 10 mm.

(b) Agar mevalar donalar soni bo‘yicha kalibrlangan (saralangan) bo‘lsa, ularning o‘lchamidagi farq bandida (a) belgilangan talablarga muvofiq bo‘lishi kerak..

IV. Ruxsat etilgan chetlanishlar (toleranslar) to‘g‘risidagi qoidalar

Mahsulotni realizatsiya qilishning barcha bosqichlarida har bir t‘op uchun ko‘rsatilgan sinf (nav) talablariga to‘liq javob bermaydigan mahsulotlarga nisbatan sifat va o‘lcham bo‘yicha ruxsat etilgan chetlanishlar qo‘llanilishiga yo‘l qo‘yiladi.

A. Sifat bo‘yicha ruxsat etilgan chetlanishlar.

(i) Oliy nav/class (Ekstra sinfi/class)

Donalar soni yoki vazni bo‘yicha 5 % gacha ushbu nav talablariga to‘liq javob bermaydigan, biroq birinchi nav talablariga mos keladigan yangi anjir mevalari mavjud bo‘lishiga ruxsat etiladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #2UYI5ZZVJ5 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Ushbu qo‘yim doirasida umumiy miqdorning 0,5 % dan ko‘p bo‘lmagan qismi ikkinchi nav sifat talablariga javob beradigan mahsulotlardan iborat bo‘lishi mumkin.

(ii) Birinchi nav

Umumiy hisobda miqdori yoki vazni bo‘yicha 10 % gacha ushbu nav talablariga javob bermaydigan, biroq ikkinchi nav talablariga mos keladigan yangi anjirlar mavjud bo‘lishiga ruxsat etiladi.

Ushbu ruxsat etilgan chetlanish (tolerans) doirasida II sinf sifat talablariga ham, minimal talablarga ham javob bermaydigan yoxud iste’molga yaroqsiz bo‘lgan mahsulotlarning ulushi jami miqdorning 1 % dan oshmasligi kerak.

(iii) Ikkinchi nav

Donalar soni yoki vazni bo‘yicha 10 % gacha ushbu nav talablariga ham, minimal talablarga ham javob bermaydigan yangi anjirlar mavjud bo‘lishiga ruxsat etiladi.

Ushbu ruxsat etilgan chetlanish (tolerans) doirasida iste’molga yaroqsiz bo‘lgan mahsulotlarning ulushi jami miqdorning (massaning) 2 % dan oshmasligi kerak.

B. O‘lcham bo‘yicha ruxsat etilgan og‘ishlar

Barcha sifat sinflar (navlar) uchun (kalibrlash (saralash) amalga oshirilgan hollarda) donalar soni yoki vazni bo‘yicha 10 % gacha kalibrlash talablariga javob bermaydigan anjir mevalari mavjud bo‘lishiga ruxsat etiladi.

V. Taqdim etishga qo‘yiladigan talablar

A. Bir xillik

Har bir qadoq birligining tarkibi bir xilda bo‘lishi va faqat bitta kelib chiqishga ega, bir xil navga mansub, bir xil sifat toifasi va o‘lchamdagi (kalibrlash amalga oshirilgan hollarda) anjirlardan iborat bo‘lishi lozim; oliy navdagi anjirlar bir xil rangga ega bo‘lishi shart.

Qadoq tarkibining ko‘rinib turgan qismi butun qadoq tarkibiga to‘liq mos kelishi lozim.

B. Qadoqlash

Yangi anjir mevalari ularning tegishli darajada saqlanishini ta’minlaydigan tarzda qadoqlanishi lozim.

Qadoqlash birligining ichida foydalaniladigan materiallar toza bo‘lishi va mahsulotga tashqi yoki ichki zarar yetkazmaydigan sifatda bo‘lishi kerak.

Xususan, qog‘oz yoki savdo tavsiflari tushirilgan yorliqlardan foydalanishga, matn yozish yoki yorliq yopishtirish uchun zaharli bo‘lmagan siyoh yoki yelim qo‘llanilishi sharti bilan, ruxsat etiladi.

Mahsulotga alohida tarzda yopishtiriladigan yorliqlar shunday bo‘lishi kerakki, ularni olib tashlash natijasida ko‘zga ko‘rinadigan yelim izlari qolmasin va po‘stloqda nuqsonlar hosil bo‘lmasin. Alohida mevalarni lazer yordamida tamg‘alash po‘stloq yoki meva etida nuqsonlar paydo bo‘lishiga olib kelmasligi lozim.

Qadoqlarda (qadoqlash birliklarida) har qanday yot moddalar (begona aralashmalar) bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

STANDARTLAR INSTITUTI #2UYI5ZZVJ5 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

VI. Tamg‘alash qo‘yiladigan talablar

Har bir qadoq[1] quyidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi shart: yozuvlar bir tomonda jamlangan, aniq o‘qiladigan, o‘chmaydigan tarzda belgilangan hamda tashqi tomondan ko‘rinadigan bo‘lishi lozim.

A. Identifikatsiyalash (tanish belgilari)

Qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi (eksport qiluvchi):

Nomi va jismoniy manzili (masalan: ko‘cha, shahar, hudud, pochta indeksi hamda, agar kelib chiqish mamlakatidan farq qilsa, mamlakat nomi) yoki bunday tizimni foydalanadigan va BMT Yevropa Iqtisodiy Komissiyasi (UNECE) ma’lumotlar bazasida ro‘yxatga olingan mamlakatlarning vakolatli milliy organi tomonidan rasman tan olingan identifikatsiya kodi[2].

B. Mahsulot tavsifi

- "Anjir" yoki "yangi anjir", agar qadoq ichidagi mahsulot tashqaridan ko‘rinmaydigan bo‘lsa;
- "Ekstra" sinfi uchun navning nomi;
- "Turli navdagi yangi anjirlar aralashmasi" yoki unga teng ma’nodagi nom – yangi anjirlarning aniq farqlanuvchi navlari yoki tijorat (pomologik) turlari aralashmasi mavjud bo‘lsa. Agar mahsulot tashqaridan ko‘rinmasa, qadoq ichidagi har bir nav yoki tijorat turi hamda ularning miqdori ko‘rsatilishi kerak. Ushbu qoidalardan qat’i nazar, "Ekstra" toifasi uchun navlarning nomlari majburiy ravishda ko‘rsatilishi lozim.

C. Mahsulotning kelib chiqishi

- Kelib chiqish mamlakati[3] va, ixtiyoriy ravishda, yetishtirilgan hudud, tuman yoki milliy, mintaqaviy yoxud mahalliy geografik nom.

Agar qadoqda birligida kelib chiqishi turli mamlakatlardan bo‘lgan, aniq farqlanuvchi navlar yoki tijorat (pomologik) turlariga mansub yangi anjir mevalarining aralashmasi mavjud bo‘lsa, har bir kelib chiqish mamlakati tegishli nav yoki tijorat turi nomi yonida ko‘rsatilishi kerak.

D. Tijorat tavsiflari

- nav (class/sinfi);
- o‘lcham (kalibrlash amalga oshirilgan hollarda), millimetrda (mm) o‘lchangan minimal va maksimal diametrlar ko‘rsatilgan holda.
- mevalar soni.

E. Rasmiy nazorat belgisi (ixtiyoriy)

1979-yilda qabul qilingan.

Oxirgi marta 2017-yilda qayta ko‘rib chiqilgan.

2017-yildagi standart tuzilma (Standard Layout) bilan uyg‘unlashtirilgan.

STANDARTLAR INSTITUTI #2UYI5ZZVJ5 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

[1] Tamg‘alash to‘g‘risidagi ushbu qoidalar ushbu ma’lumotlar ko‘rsatilgan o‘ramlardagi iste’mol qadoqlariga nisbatan qo‘llanilmaydi. Biroq, ular alohida sotiladigan sotish uchun qadoqlarga (iste’mol qadoqlariga) taalluqlidir.

[2] Ba’zi mamlakatlarning milliy qonunchiligi nom va manzilni aniq ko‘rsatishni talab qiladi. Ammo kod belgisi qo‘llanilganda, uning bevosita yaqinida "qadoqlovchi yoki jo‘natuvchi" yozuvi (yoki tegishli qisqartmalar) qo‘yilishi shart, kod belgisidan oldin esa, agar u kelib chiqish mamlakatidan farq qilsa, sertifikatlashtiruvchi mamlakatga tegishli bo‘lgan (ikki harfli) mamlakat/hudud kodi (ISO 3166) bo‘lishi lozim.

[3] Mahsulot tarkibiga odatda xos bo‘lmagan har qanday modda yoki material.

STANDARTLAR INSTITUTI #2UYI5ZZVJ5 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (OECD) meva va sabzavotlar uchun xalqaro standartlarni qo‘llash sxemasi ushbu standartni qo‘llash bo‘yicha illyustratsiyalar bilan boyitilgan tushuntiruvchi risolani chop etgan. Mazkur nashrni OECD kitob do‘konidan www.oecdbookshop.org manzili orqali xarid qilish mumkin.

STANDARTLAR INSTITUTI #2UYI5ZZVJ5 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI